

**Jamshid Elmuradovich Tavmuradov**  
 Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
 Samarqand kampusi o'qituvchisi  
 jamshidtavmuradov@gmail.com

## MIRZO BEDIL MEROSINING MARKAZIY OSIYO FALSAFIY TAFAKKURIDAGI O'RNI

**Annotatsiya.** Maqolada Mirzo Abdulqodir Bedil merosining Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuridagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mutafakkir asarlaridagi ontologik, gnoseologik va axloqiy qarashlar Sharq falsafasi an'analari bilan bog'liq holda yoritilib, uning inson, borliq va ma'naviyat haqidagi g'oyalarining keyingi davr tafakkuriga ta'siri asoslab beriladi. Bedil falsafasining tasavvuf va islomiy-irfoniy tafakkur bilan uzviy aloqasi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Mirzo Bedil, falsafiy tafakkur, Markaziy Osiyo, tasavvuf, irfon, borliq, inson, ma'naviyat, Sharq falsafasi.

## MIRZO BEDIL HERITAGE CENTRAL ASIAN PHILOSOPHICAL ROLE IN THOUGHT

**Annotation.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the influence of Mirza Abdulqadir Bedil's works on the development of philosophical thought in Central Asia. The ontological, epistemological, and ethical ideas presented in Bedil's writings are examined in relation to the main traditions of Eastern philosophy. The study also substantiates the impact of the thinker's views on humanity, existence, intellect, and spirituality on the worldview of later Central Asian philosophers, highlighting the close connection between Bedil's philosophy and Sufi, Islamic, and mystical thought.

**Keywords:** Mirza Bedil, philosophical thought, Central Asia, Sufism, Eastern philosophy, ontology, epistemology, spirituality.

## ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКАЯ ФИЛОСОФИЯ НАСЛЕДИЯ МИРЗЫ БЕДИЛА РОЛЬ В МЫШЛЕНИИ

**Аннотация.** В статье проводится научно-теоретический анализ влияния творчества Мирзо Абдулкадира Бедила на развитие философского мышления Центральной Азии. Онтологические, гносеологические и этические идеи, представленные в его произведениях, рассматриваются в контексте основных направлений восточной философии. Обосновывается влияние взглядов мыслителя на человека, бытие, разум и духовность на мировоззрение последующих философов Центральной Азии, а также раскрывается тесная связь философии Бедила с суфийской, исламской и ирфанской традициями.

**Ключевые слова:** Мирзо Бедиль, философское мышление, Центральная Азия, суфизм, восточная философия, онтология, гносеология, духовность.

**Kirish.** Sharq tamaddunida betakror iz qoldirgan buyuk shoir va mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil o'z davrining yirik zotlaridan biri bo'lib, "Abulma'oniy", ya'ni "Ma'nolar otasi" degan nom bilan tanilgan. U XVII–XVIII asrlar davomida nafaqat Hindiston va Markaziy Osiyoda, balki butun Sharq olamida fikr va ma'naviyat namoyondasi sifatida yuksak e'tirof etilgan. Bedilning badiiy merosi, falsafiy va irfoniy fikrlari, axloq va jamiyatga oid qarashlari keyingi asrlarda yashab ijod qilgan ko'plab zukko qalam egalarning — Furqat, Muqimiy, Asiriy,

52 Avaz O'tar, Ahmad Donish, Mirzo Maseho Boysuniy, Xislat, Tug'ral, Ayniy, Fitrat, Hayrat kabilarning dunyoqarashi va ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy Osiyo qadimdan falsafiy tafakkur va ma'naviy madaniyatning muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu hududda yetishib chiqqan mutafakkirlar inson, jamiyat va borliq masalalariga oid chuqur falsafiy qarashlarni ilgari surganlar. Ana shunday buyuk siymolardan biri Mirzo Abdulqodir Bedildir. Uning ijodi nafaqat adabiy-estetik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, Sharq tafakkuri tarixida alohida o'rin tutadi. Bedil ijodini o'rganish Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurining rivojlanish bosqichlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Mirzo Abdulqodir Bedilning nihoyatda boy ilmiy-falsafiy va adabiy merosga ega bo'lishiga qaramay, XX asrning o'rtalariga qadar uning ijodi va dunyoqarashi yetarli darajada chuqur ilmiy tadqiq etilmagan. Dastlabki bosqichlarda Bedil shaxsiyati va ijodiga oid ma'lumotlar asosan ayrim olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan berilgan qisqa biografik izohlar, asarlaridan tanlab olingan parchalar hamda umumiy xarakterdagi mulohazalar bilan cheklanib qolgan. Bunday yondashuvlar Bedil merosining falsafiy-axloqiy mohiyatini to'liq ochib berishga imkon bermagan hamda zamonaviy ilm-fan talablariga to'la javob bermagan. Aslida esa, Mirzo Bedilning adabiy, falsafiy va ma'rifiy qarashlari kutilganidan ham ancha yuksak ilmiy va axloqiy qimmatga ega bo'lib, Sharq tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Uning asarlarida inson, borliq, aql, tafakkur va ma'naviyat masalalari chuqur falsafiy mushohada asosida yoritilgan bo'lib, bu jihatlar Bedilni nafaqat shoir, balki yetuk mutafakkir sifatida ham e'tirof etishga asos bo'ladi. Shunga qaramay, uzoq vaqt davomida uning merosi kompleks va tizimli tadqiqot obyektiga aylantirilmagan.

Hind, eronlik hamda markaziy osiyolik tarixiy-adabiy manbalarda Bedil hayoti va ijodiga oid ayrim muhim ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Mirg'ulom Ali Ozod Belg'iromiy qalamiga mansub "Xazonai Omira" asarida Bedil shaxsiyati, adabiy faoliyati va falsafiy qarashlari haqida qimmatli, garchi ixcham bo'lsa-da, tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Bunday manbalar Bedil merosini o'rganishda dastlabki ilmiy asos vazifasini o'taydi. Shu bilan birga, mazkur ma'lumotlar asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lib, Bedil falsafasining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Mazkur holat Mirzo Abdulqodir Bedil ijodini zamonaviy falsafiy-metodologik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish, uning asarlaridagi ontologik, gnoseologik va axloqiy g'oyalarni tizimli tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, Bedil falsafasining Markaziy Osiyo tafakkur maktablari rivojiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash bugungi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqi ma'naviy merosining taniqli tadqiqotchisi, akademik Ibrohim Mo'minov ta'kidlaganidek, Husaynqulixon o'zining "Nashtari ishq" nomli asarida Bedilning ilmiy va adabiy faoliyatini puxta tahlil qilib chiqqan. Sharq xalqlari ma'naviyati, falsafasi va og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, mazmun jihatdan boy va chuqur ma'nolarga ega asarlar muallifi bo'lmish buyuk mutafakkir va shoir Mirzo Abdulqodir Bedilning ijodiy merosini o'rganish yo'lida bir qator yetuk olimlar izlanishlar olib borishgan. Xususan, o'zbek akademiklari I.Mo'minov, Sh.Shomuhamedov, va Sh.Shukurov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa, adabiyotshunos Shavkat Shukurovning Bedil hayoti, ijodi va xususan, uning she'riyatidagi poetik o'zlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy monografiyalari va tahliliy maqolalari diqqatni tortadi. Shu bilan birga, Bedilning irfoniy va badiiy asarlari turli tillarga tarjima qilingani ham uning ijodiy ta'sir doirasini kengaytirdi.

**Asosiy qism.** Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanish manbalari. Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy dunyoqarashi Sharq tafakkuri taraqqiyotining bir necha muhim manbalari asosida shakllangan bo'lib, bu jarayonda islom falsafasi, tasavvuf, irfoniy tafakkur hamda mumtoz adabiy an'analardan hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bedil ijodini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning falsafiy qarashlari oddiy taqlid mahsuli emas, balki avvalgi mutafakkirlar g'oyalarni chuqur mushohada qilish, ularni ijodiy qayta talqin etish natijasidir. Avvalo, Bedil falsafasining nazariy asoslarini islom falsafasi tashkil etadi. U islomiy tafakkur doirasida rivojlangan ontologik va gnoseologik masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Bedil asarlarida borliq yagona va mutlaq

manbadan kelib chiqishi, mavjudotlar esa ushbu ilohiy manbaning turli ko'rinishlari ekani haqidagi g'oya yetakchi o'rin tutadi. Bu qarashlar islom falsafasida keng tarqalgan vahdat al-vujud konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, Bedil tomonidan o'ziga xos badiiy-falsafiy shaklda ifodalanadi.

Tasavvuf va irfoniy tafakkur Bedil dunyoqarashining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Uning asarlarida ruhiy kamolot, nafsni poklash, ma'rifatga erishish va ilohiy haqiqatni anglash masalalari markaziy o'rinda turadi. Bedil tasavvufni faqat diniy-amaliy yo'l sifatida emas, balki inson tafakkurini yuksaltiruvchi, uni borliq mohiyatini anglashga yetaklovchi falsafiy tizim sifatida talqin etadi. Shoir insonni o'zini anglash orqali butun koinotni idrok etishga qodir mavjudot sifatida ko'rsatadi.

Mirzo Bedil falsafiy qarashlarining shakllanishida Ibn Arabiy ta'limotining ta'siri ayniqsa sezilarli. Ibn Arabiy ilgari surgan borliqning yagona mohiyati, insonning "komil inson" sifatidagi mavqei va ilohiy haqiqatni qalb orqali anglash g'oyalari Bedil ijodida chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Bedil ushbu qarashlarni she'riy obrazlar, ramzlar va murakkab falsafiy istioralar orqali ifodalab, ularga yangi badiiy-falsafiy talqin beradi.

Shuningdek, Jaloliddin Rumi falsafasi va uning ma'rifiy-irfoniy qarashlari Bedil tafakkurining shakllanishida muhim manba bo'lgan. Rumi singari Bedil ham aql va muhabbat munosabatini falsafiy jihatdan talqin etib, muhabbatni insonni haqiqat sari yetaklovchi eng qudratli kuch sifatida baholaydi. Bedil asarlarida aql cheklangan imkoniyatga ega bo'lsa-da, u ma'naviy kamolot jarayonida muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Aql va qalb uyg'unligi esa insonni mukammallikka eltuvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiy ijodi ham Mirzo Bedil dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Navoiy asarlaridagi insonparvarlik, axloqiy komillik va ma'naviy barkamollik g'oyalari Bedil ijodida falsafiy jihatdan yanada chuqurlashtirilgan holda namoyon bo'ladi. Bedil Navoiy an'alarini davom ettirib, adabiyot va falsafani uzviy bog'lagan holda talqin qiladi. Uning nazarida she'riyat nafaqat estetik zavq manbai, balki inson tafakkurini yuksaltiruvchi falsafiy vositadir.

Mirzo Bedil asarlarida inson va borliq munosabati alohida falsafiy muammo sifatida ko'tariladi. Shoir insonni koinotning kichik modeli – "mikrokosmos" sifatida tasvirlab, unda butun borliqning mohiyati mujassam ekanini ta'kidlaydi. Ushbu qarash Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida antropotsentrik yondashuvning rivojlanishiga kuchli turtki bo'lgan. Bedil fikricha, inson o'zini anglamasdan turib, borliq sirlarini idrok etishi mumkin emas. Shu tariqa, Mirzo Bedil falsafiy qarashlari islom falsafasi, tasavvuf, irfoniy tafakkur hamda Sharq mumtoz adabiy an'analari sintezi asosida shakllangan murakkab va mukammal tizimni tashkil etadi. Bu tizim Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, keyingi davr mutafakkirlari dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

**Natijalar va muhokama.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyotida muhim va o'ziga xos bosqichni tashkil etadi. Uning falsafiy qarashlari mintaqada shakllangan an'anaviy islomiy va tasavvufiy tafakkurni yangi sifat darajasiga ko'targan holda, falsafiy mushohada doirasini kengaytirgan. Bedil ijodida borliq, inson va ma'naviyat muammolarining uzviy bog'liqlikda yoritilishi falsafiy tafakkurning tizimli rivojlanishiga xizmat qilgan. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Bedil asarlarida ilgari surilgan ontologik qarashlar borliqni statik hodisa sifatida emas, balki doimiy harakat va o'zgarishda bo'lgan murakkab tizim sifatida talqin etishga asoslanadi. Bu yondashuv Sharq falsafasida mavjud bo'lgan an'anaviy qarashlarni chuqurlashtirib, borliq mohiyatini anglashda yangi metodologik imkoniyatlar yaratgan. Bedil tomonidan ilgari surilgan "inson – koinotning mazmuniy markazi" degan g'oya Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida antropotsentrik qarashlarning mustahkamlanishiga zamin yaratgan.

Shuningdek, Bedilning gnoseologik qarashlari bilim va haqiqat masalasini faqat aql orqali emas, balki ma'naviy tajriba va ichki mushohada orqali anglash mumkinligini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bedil aqlni inkor etmagan holda, uni qalb va ruhiy tajriba bilan uyg'unlikda ko'radi. Bu yondashuv Markaziy Osiyo tafakkurida bilishning ko'p qirrali modeli shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Muhokama jarayonida Bedil falsafasining axloqiy

54 jihatlar alohida ahamiyat kasb etishi aniqlanadi. Uning asarlarida insonning axloqiy komillikka erishishi, nafsni jilovlash va ma'naviy poklanish masalalari yetakchi o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari Bedil g'oyalarining nafaqat nazariy, balki amaliy-axloqiy ahamiyatga ham ega ekanini ko'rsatadi. Bu jihat uning qarashlarini keyingi davr mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari uchun muhim manba darajasiga ko'targan.

Shuningdek, Bedil ijodi Sharq falsafasida mavjud bo'lgan irfoniy an'analarni yangi bosqichga olib chiqqani aniqlanadi. U irfoniy tafakkurni badiiy-falsafiy shaklda chuqurlashtirib, uni kengroq ijtimoiy va ma'naviy kontekstda talqin qilgan. Natijada Bedil falsafasi nafaqat diniy-elitar doirada, balki keng ma'rifiy muhitda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, Mirzo Bedil falsafiy merosi Markaziy Osiyo tafakkurining keyingi rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatgan. Uning g'oyalari adabiyot, falsafa va axloqiy tafakkur uyg'unligini ta'minlab, mintaqada mustaqil falsafiy mushohada madaniyatining shakllanishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan, Bedil ijodini o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy falsafiy tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning falsafiy va badiiy merosi mintaq xalqlari ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan. So'nggi uch asr mobaynida Bedilning asarlari Hindiston, Afg'oniston va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng tarqalgan bo'lsa-da, ularni to'liq anglash va to'g'ri talqin qilish ko'pchilik o'quvchilar uchun murakkab bo'lgan. Ayniqsa, Bedilning ba'zi asarlari shikasta xatida yozilgani, harf ustlari va ostlariga tegishli diakritik belgilar qo'yilmagani sababli, matnlarni o'qish va tushunish ancha murakkablik tug'dirgan.

Ushbu holat Bedil ijodidagi "nuqtaviy" uslub deb ataladigan o'ta ramziy va majozli ifoda vositalarining keng qo'llanilishiga olib kelgan. Shu sababli, uning badiiy-obrazlar tizimini to'g'ri anglash nafaqat adabiyotshunos, balki falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan ham katta mashaqqatni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bedil ijodidagi nazm va nasr asarlari uslub jihatdan murakkab bo'lishiga qaramay, mazmun va falsafiy tafakkur qatlamlari Markaziy Osiyo xalqlari qalbida mustahkam o'rin egallagan.

Tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Bedilning g'azal va masnaviy asarlari asrlar davomida yuqori e'tiborga sazovor bo'lib, madrasalarda alohida fan sifatida o'qitilgan. Ularni to'g'ri anglash uchun turli davrlarda maxsus sharhlar, tushuntiruvlar va qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, «Kulliyoti Bedil» nomli to'plam ko'p marta ko'chirilgan va toshbosma shaklda Eron, Afg'oniston va Markaziy Osiyoda bir necha marta nashr etilgan. Bedilxonlik an'analari, jumladan, gulobodlik Sa'dixon domlaning xonadonida o'tkazilgan badiiy-irfoniy yig'inlar, Bedil ijodiga bo'lgan qiziqishning keng miqyosda namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu yig'inlarda o'zbek shoir va adiblari — Chustiy, Xurshid, Habibiy, Boqiy, Anisiy, G'afur G'ulom kabi san'atkorlar ishtirok etgan. XX asrning 20-yillaridan boshlab Bedilga bo'lgan ilmiy va adabiy qiziqish yanada kuchaygan: bu davrda Miyon Buzruk, Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy kabi yozuvchi va olimlar uning ijodi haqida maqolalar bitgan, uni yangi ilmiy-nazariy kontekstda tadqiq etishga harakat qilgan.

Bedil merosi O'zbekistonda an'anaviy ravishda ilmiy tahlil va adabiy-ruhiy mulohazalar obyekt sifatida keng o'rganib kelinmoqda. So'nggi yillarda shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, xalqaro va milliy miqyosdagi anjumanlar tashkil etildi. Shu jumladan, 2005 yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Bedil va o'zbek ma'naviyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman Bedil ijodini o'rganishdagi muhim voqealardan biri bo'lib, ushbu tadbir natijalari asosida shu nomdagi ilmiy to'plam nashr etildi. Mazkur to'plamda O'zbekistondagi yetakchi adabiyotshunos va falsafa sohasi mutaxassislarining Bedilga oid ilmiy maqolalari jamlangan. Jumladan, N.Komilov, H.Homidiy, H.Boltaboyev, D.Salohiy, R.Vohidov, Sh.Shukurov va S.Olim kabi taniqli olimlar Bedilning hayoti, ijodi, falsafiy-irfoniy g'oyalari, Sharq adabiyotida tutgan o'rni, asarlarining o'zbek tiliga tarjimai va umuminsoniy ahamiyati xususida ilmiy tahlillar taqdim etgan.

**Xulosa.** Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga chuqur va sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Uning falsafiy qarashlari nafaqat adabiy-estetik sohada, balki inson, borliq va ma'naviyat masalalarini tizimli va falsafiy nuqtai nazardan yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bedil asarlarida ilgari surilgan ontologik, gnoseologik va axloqiy g'oyalar insonni ma'naviy kamolotga chorlovchi, uni o'zining ichki olami orqali borliq mohiyatini anglashga yo'naltiruvchi tizimli ilmiy-ma'rifiy platformani tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bedil falsafasi Sharqning irfoniy an'analari va islomiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan. Uning ijodiy merosi nafaqat o'sha davr mutafakkirlari, balki keyingi avlod olimlari, shoirlar va falsafiy tafakkur egalari uchun ham ilmiy manba sifatida xizmat qilgan. Bedil qarashlarida insonning ruhiy va aqliy rivojlanishi, axloqiy komillikka erishish va ma'naviy barkamollikka intilishi o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bu tafakkur tizimi bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Shu bilan birga, Bedil merosini chuqur o'rganish Markaziy Osiyo va keng Sharq falsafiy tafakkurining tarixiy taraqqiyotini tushunishga, mintaqa mutafakkirlarining dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini tahlil qilishga imkon yaratadi. Bugungi kunda Bedil falsafasining izlanishi nafaqat tarixiy va adabiy nuqtai nazardan, balki zamonaviy ma'naviy-axloqiy va falsafiy tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, Mirzo Bedil ijodi Markaziy Osiyo tafakkur makonida falsafiy tafakkurning rivojlanishida mustahkam asos bo'lib xizmat qilgan bo'lib, uning ilmiy va ma'naviy merosi hali ham yangi tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar uchun boy manba hisoblanadi. Bedil g'oyalari insonning aql, qalb va ruhiy olamini uyg'unlashtirishga, ma'naviy barkamollik sari yetaklashga xizmat qiluvchi muhim falsafiy manba sifatida tarixiy va zamonaviy qiymatini saqlab qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Xayrullaev M. Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri tarixi. – Toshkent: Fan, 1995.
2. Bedil M.A. Ruboiyyot va falsafiy asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1988.
3. Tursunov D. Markaziy Osiyo shoirlarining falsafiy qarashlari. – Toshkent: Yangi asr, 2020.
4. Erkayev A. Sharq va Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri. – Toshkent: Universitet, 2008.
5. Akramova L. Mirzo Bedil va Sharq falsafiy tafakkuri. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
6. Rahmonov B. Bedil ijodi va badiiy-irfoniy meros. – Samarqand: Fan, 2017.
7. Murtazaev A. Sharq shoirlari va ramziy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2021.